

## IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING NUTQINI ART TERAPIYA VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH

**Mira'zamova Asolatxon Shaxob qizi**

*Nizomiy nomidagi TDPU*

*“Logopediya” yo’nalishi magistranti.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalar nutqini art terapiya vositasida rivojlantirish usullari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Kalit so’zlar: Art terapiya, terapiya, san’at, texnika, bolalar, psixoterapevtik, maktabgacha, psixokorreksiya, imkoniyati cheklangan bolalar.* **Аннотация:** *В данной статье представлена информация о способах развития речи детей с ограниченными возможностями посредством арт-терапии.*

**Ключевые слова:** *Арт-терапия, терапия, искусство, техника, дети, психотерапевтический, дошкольный, психокоррекция, дети с ограниченными возможностями.*

**Abstract:** *This article provides information on ways to develop the speech of children with disabilities through art therapy.*

**Key words:** *Art therapy, therapy, art, technique, children, psychotherapeutic, preschool, psychocorrection, disabled children.*

Hozirgi kunda jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoyalash, o'qitish va tarbiyalash masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni (23-modda) va davlat tomonidan 1992 —yilda ratifikatsiya qilingan BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasida nogiron bolalarni alohida parvarishlash, ta'limdan foydalanish, munosib turmush kechirish huquqlariga egaligi e'tirof etilgan. Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi"gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori qabul qilindi.

Art-terapiya-psixokorreksiya usuli bo'lib, birinchi marta psixoterapiyada 1938-yilda A.Xill tomonidan qo'llanilgan. Oddiy, ko'proq bolalarcha hazillarni, mashqlarni eslatib, nafaqat har qanday odamning (kattalar ham, bolaning ham) ruhiy holatini tashxislash, balki ko'plab asab kasalliklarini muvaffaqiyatli hal qilish mumkin. T.M.Grabenko ta'kidlashicha „Art-terapiya - bu san'at va ijodkorlikka asoslangan ish yo'nalishi. So'zning tor ma'nosida art-terapiya odatda mijozning psixo-emotsional holatiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan vizual artterapiyani anglatadi"Art-terapiya o'z oldiga uchta asosiy vazifani qo'yadi: 1. Rivojlanishda nuqson bo'lgan bolalar diagnostikasi, muammolar va boshqalar; 2.Tuyg'ularga javob berish qobiliyati.

3. Psixokorreksiya. Zamonaviy art-terapiya quyidagi sohalarni o'z ichiga oladi: Musiqa terapiya, imagoterapiya, bibleoterapiya, raqs terapiyasi, qum terapiya, izoterapiya, knezioterapiya, qo'g'irchoq terapiyalari. Vasiliy Kandinskiyning aytishicha, agar tasviriy asar psixologik ma'noga ega bo'lmasa, uni san'at asari deb bo'lmaydi. Art terapiyani biror usulini tanlaganda, bemor izoterapiya, musiqa, qum va ertak bilan davolash va har qanday boshqa turdagi ijod usulini tanlashi mumkin. Mashg'ulotlar odatda 1-2 soat davom etadi va haftada bir necha marta o'tkaziladi. Psixolog bemor yoki guruh bilan uchrashib, qulay materiallarni tanlab, ish boshlashni taklif etadi. Tinch, do'stona muhitda mutaxassis ishtirokchilarga o'z hissiyotlari yoki taktil his- tuyg'ulariga e'tibor qaratishga yordam beradi. Ijodiy jarayon tugagach, bemorlar natijalarni psixolog bilan muhokama qiladilar. Quyida art terapiya mashqlaridan namunalar mavjud: 1. Syujetni chizish. Psixolog ma'lum bir mavzu bo'yicha rasm chizishni taklif qiladi va u ishtirokchining his-tuyg'ularini aks ettirishi kerak. Ishni muhokama qilish paytida mutaxassis sizning hissiy holatingizni tushunishga yordam beradi.

2. Kollaj qilish. Guruh a'zolari bir mavzuda kollaj qilishadi. Bu orzu va hayot maqsadlarini aks ettirishi mumkin. Shu tariqa psixolog yordamida siz o'zingizni baxtli qiladigan yo'lni rejalashtira olasiz. Kollaj ilhom manbai bo'ladi.

3. Musiqa yordamida chizish. Sizdan musiqiy kompozitsiyani tinglash va hissiyotlaringizni qog'ozga tushirish talab etiladi. Bezovtalik ketadi, kayfiyat ko'tariladi, Ertak terapiya atrof-muhit bilan o'zaro munosabatni mukammallashtirish hamda emotsional buzilishlarni to'g'rilashda foylaniladigan usuldir. V.Kandinskiyning aytishicha, „agar tasviriy asar psixologik ma'noga ega bo'lmasa, uni san'at asari deb bo'lmaydi". Ertaklar bolaga umid beradi. Bola qanchalik Yangi yil kechasi sovg'a olib keladigan Qorboboga ishonsa, u shunchalik hayotga optimist ko'z bilan qaraydi. Ertaklar orqali biz bolani tarbilaymiz, uningichki dunyosini boyitamiz, qalbini davolaymiz, hayot haqida bilib beramiz, xayolini o'stiramiz. Haqiqiy ertakning asosiy belgisi bu - uning yaxshilik bilan tugashidir. Bu bolaga psixologik himoyalanganlik tuygusini beradi. Ertaklarda nimaiki sodir bolmasin, yaxshilik bilan yakun topadi, ertak qahramonlarining boshiga tushgan barcha sinovlar ularni yanada kuchli va aqlli qiladi. Boshqa tomondan, bola yomon xatti-harakatlarni amalga oshirgan qahramonlarning, albatta, qilmishlariga yarasha jazo olishlarini koradi. Barcha sinovlardan mufaqqiyatli otgan, ozining barcha ijobiy hislatlarini namoyon qilgan qahramonlarning esa albatta mukofotlanishiga amin boladi. Ana shunda hayotning asosiy qonuni yaqqol korinadi: Sen hayotga qanday munosabatda bolsang, u ham senga shunday javob qaytaradi. Korney Ivanovich Chikovskiy shunday yozgan edi: « Menimcha ertakning maqsadi bolada bironing gam-tashvishi uchun qaygurish, ozganing shodligi uchun xursand bolish, begona insonning taqdirini xuddi oziniki kabi boshdan otkazish kabi insoniylikni qanday bolmasin tarbiyalashdan iboratdir". O.Ishimova tomonidan imkoniyati cheklangan bolalar nutqini rivojlantirish uchun „Ertak chizish" metodi ishlab chiqildi. Bundan keyin ertakni chizish, ko'rgazma qilish yoki uni dastur sifatida taqdim etish maqsadga muvofiqdir. Rangli karton, plastilin bilan chizish yoki ishlash, mijoz o'ziga tegishli bo'lgan hamma narsani, his- tuyg'u va fikrlarni o'zida mujassamlashtiradi. Tasvir sifati muhim emas Kuchli his-tuyg'ular bilan bola yoki kattalar

chizmalarida har xil hayvonlar, olov yoki quyuq ranglarni ko'rish mumkin. Shu bilan bir qatorda bir qator texnologiyalar imkoniyati cheklangan bolalar uchun ishlab chiqilgan : Artterapiya orqali barmoqlar harakatchanligini rivojlantirish uchun „Yomg'ir yog'ayapti ” , „Tovuq uchun don ” , „Quyosh nurlari” , „Hayvonlar uchun ozuqa ” , „Maysa ” , „Qordagi izlar ” kabilar ishlab chiqilgan. Bolalardagi qo'rquvni yengish , tinchlantirish uchun qator „ Baliq ovi” , „Sehrgar o'rmon ” , „Teatrda ” , „To'g'ri tanla ” , „ Qaysar echki ” , „Bog'lam ” kabi o'yinlar ishlab chiqilgan . Qum terapiyasi asosida bolalarni kompleks rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar .

„Chizing va ayting” texnologiyasi .Maqsad : bolalarning lug'at boyligini yangi so'zlar bilan boyitish , barmoqlar harakatchanligini , ko'ruv idrokini , nutq- harakat ko'nikmasini rivojlantirish.

Bajarilish tartibi : Bu o'yinni ochiq havoda yoki xonadagi bolalar uchun zararsiz bo'lgan qumda o'tqaziladi. Bola qumga sodda bo'lgan predmetlarni(masalan, kapalak, koptok, olma, gul, mashina kabi) chizadi. Va chizgan rasmlarini nomlab ,ular haqida bilgan ma'lumotlarini aytib berishadi.Ko'rsatma: Dastavval, bolaga tasvirlash kerak bo'lgan predmetlar rasmi ko'rsatiladi, mutaxassis yoki ota-ona rasmni qumda birinchi navbatda o'zi chizib ko'rsatadi, so'ngra bola bilan birgalikda chizishadi. Topshiriq 2-3 marta birgalikda takrorlangandan so'ng mustaqil topshiriq sifatida beriladi.Kutilayotgan natijalar : mazkur texnologiya orqali bolalar yangi predmetlar, tanish bo'lgan jismlarni to'g'ri nomlay olish , ularni qumda to'g'ri tasvirlay olish kabi ko'nikmalar shakllanadi. Ularni qumda aks ettirish orqali esa barmoqlar harakatchanligini rivojlanib boradi . Bugungi kunda logopedik ish jarayonida art-terapiyadan foydalanish «Zamon talabiga javob beruvchi mutaxassis» sifatida talqin qilinishiga asosiy omillardan biri sifatida etakchi o'rin egallab kelmoqda. O'rganilgan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki art-terapiya yaqin yillarda paydo bo'libgina qolmay , uzoq yillar davomida mutaxassislar, xususan, psixoterapevtlar tomonidan uzoq yillardan beri foydalanib kelinayotganini ko'rsatadi. Art-terapiya bilan logopedik mashg'ulotlarni o'tkazish nafaqat maktabgacha talim tashkiloti logopedining balki xususiy markaz va reabilitatsion markazlardagi mutaxassislarning tuzatish va tarbiyaviy ishlarida juda samarali va zamonaviy yechimdir. Ular bolalarda ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi, har bir bolani alohida ochishga yordam beradi. Tuzatish faoliyatining boshqa turlari bilan muvaffaqiyatli birlashtirilgan bunday o'yinlar o'rganish va rivojlanish jarayonida integratsiyaga imkon beradi. Art-terapiyasi bolalardagi buzilgan tovushlarni korreksiyalash jarayonida ijobiy dinamikani ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu terapiya turi so'z boyligi kengaytirish va tilning grammatik iboralaridan erkinroq foydalanish imkoniyatini taqdim etadi va bolalar muloqotda ancha erkinligini ta'minlaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, art-terapiyasi turli nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda fikrlash qobiliyati va guruhdagi boshqa bolalar bilan o'zaro yaxshi munosabatda bo'lish qobiliyatini muhim rol o'ynaydi. Nafaqat imkoniyati cheklangan bolalarda, balki sog'lom bolalarda ham „men“ konsepsiyasini shakllantirishga yordam beradi. Jumladan art-terapiya nafaqat maktabgacha yoshdagi bolalarda ,balki maktab yoshidagi bolalarda ham amaliy faoliyat sifatida qo'llash samarali ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni.

2."Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5270-sonli 2017 yil 1 dekabrda Farmoni.

3.АриповаШ.Д.Болалар нутқининг грамматик қурилишини ривожлантиришда коррекцион педагогик иш тизими. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси.- Т.: 2018. -33 б.

4.Ражабова Р.З. Ўзбек болалар адабиётида фольклор жанрлари стилизацияси(нарий эртақ ва топишмоқ мисолида). PhD. дисс. Автореф. Б.: 2020 й.- 9 б.

5.Тохтиёрова Ш. Болаларда нутқ камчиликларни бартараф этишнинг коррекцион логопедик жараёни моделлаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Т.: 2021. 23 б.

6.Ishimova.O.A. Maktabda nutq terapiyasi ishi - Ma'rifat, 2009 y 7.Ivanova, A.I. Ona bilan muloqot qilish uslubining bolaning nutqini shakllantirishga ta'siri / nutq terapevti. - 2004. - No 4. - S. 42-45 8.Petrushin V. I. Muzikalnaya psixoterapiya. — „Vlados“, 2000.